





RESPUBLIKAMIZDA ILM-FAN SOHASIDA OLIB BORILAYOTGAN ISHLARNING YUTUQLARI VA ISTIQBOLLARI





O‘z tajribamdan kelib chiqib,
sizlarga aytadigan maslahatim shu: ilmni
qadrlang, ilmga intiling! Bir soniya
vaqtingiz ham bekor o‘tmasin!
Yoshlik – umrning eng bebaho davri.
Ilm o‘tda yonmaydigan, suvda
cho‘kmaydigan, hech kim sizdan tortib
ololmaydigan boylik ekanini aslo
unutmang!

*O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Shavkat Mirziyoyev*



**“Tarbiya qancha
mukammal bo‘lsa,
Xalq shuncha
baxtli yashaydi”.**


Sh.Mirziyoyev

Mustaqillik yillarida Respublikada amalga oshirilayotgan islohotlarning markazida inson va uning manfaatlari turadi. Barcha o‘zgarishlarning provard maqsadi aholi farovonligini oshirishga qaratildi. 2017-yildan e’tiboran barcha sohalarda davlat o‘z taraqqiyotining yangi bosqichiga qadam qo‘ydi. Yangilanayotgan O‘zbekiston tarixidagi muhim yangiliklardan biri, bu ijtimoiy sohani rivojlantirish bo‘ldi. O‘zbekistonning eng katta boyligi – bu xalqning ulkan intellektual va ma’naviy salohiyatidir. Davlat rahbarining tashabbusi bilan Respublikada ta’lim va ilm-fan tizimini takomillashtirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy ustuvor vazifalaridan biriga aylandi.




Ilm-fan — har qanday davlatni rivojlanishga yetaklovchi asosiy kuch hisoblanadi. Davlatning rivojlanishini fan taraqqiyoti orqali baholash juda ham o‘rinli, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Shu bois O‘zbekiston uchun ilm-fan taraqqiyoti farovonlik va barqarorlik yo‘lidagi muhim qadamlardan biridir. Konstitutsiyamizda davlat jamiyatning ilmiy va texnikaviy rivojlanishiga g‘amxo‘rlik qilishi bejiz qayd etilmagan. Tarixdan o‘zbek jamiyatida ilmga hurmat va ehtirom an’ana sifatida saqlanib kelgan. Buyuk bobokalonimiz Imom Buxoriy aytganlaridek, “*Dunyoda ilmdan boshqa najot yo‘q va bo‘lmaqay*”.


Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha erishilgan yutuqlarga qaramay, hali hal qilinishi kerak bo'lgan bir qator muammolar mavjud. Ayniqsa, bugungi kunda globallashuv va raqamlashtirish davrida aynan innovatsion yondashuv mamlakat muvaffaqiyatiga zamin yaratadi. Bunday yondashuvni faqat ilm-fan yutuqlari tufayli qo'llash mumkin, shuning uchun ilm-fan taraqqiyoti davlatning innovatsion rivojlanishining muhim tarkibiy qismidir.



Ilm-fan muammolari iqtisodiy o'sishga, aholi turmush darajasini yaxshilashga, ijtimoiy sohaning dolzarb muammolarini hal qilishga bevosita ta'sir qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktyabrdagi PF-6097-son Farmoni bilan tasdiqlangan ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsyepsiyasida ilm-fanni rivojlantirish yo'lidagi *19 ta muammo* alohida belgilandi. Iqtisodiyot real sektori korxonalarining ilm-fanga e'tibori yuqori emasligi, ilmiyatdajiqot o'tkazadigan jamoalar o'rtacha yoshining kattaligi, ilm-fan va ilmiy faoliyatga moliyaviy resurslarning yetarli darajada yo'naltirilmayotgani shular jumlasidandir. Ushbu muammolarni hal qilish muhim bo'lib, har tomonlama va chuqr o'ylangan choralar ko'rishni talab qiladi.





Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi ilm – fan va ilmiy faoliyatni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari, vazifalari, o‘rta va uzoq muddatli istiqboldagi rivojlanish bosqichlarini belgilab beradi hamda sohaga oid maqsadli dasturlar va kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun asos bog‘ladi.



Mazkur Farmon bilan hududlarda ilmiy faoliyat bilan shug‘ullanib kelayotgan iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash, ilm-fanga keng jalb qilish, nufuzli ilmiy maktablarni shakllantirish, ularning ilmiy salohiyatini oshirish maqsadida 2021-yil 1-yanvardan boshlab “Akademik harakatchanlik” dasturi joriy qilinishi belgilandi.

Ilm-fanni tizimli rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari sifatida quyidagilar nazarda tutilgan:

Ilm-fan taraqqiyotini ta'minlash davlat va xususiy sektorning asosiy vazifalaridan biri hamda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning strategik yo'nalishlaridan biri sifatida belgilash;

Jamiyat va iqtisodiyotning real sektori tomonidan innovatsion texnologiyalarni joriy qilinishini har tomonlama rag'batlantirish va mahalliy ilmiy salohiyatdan kelib chiqqan holda innovatsion faoliyatni amalga oshirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish;

Ilm-fanni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish va uni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish maqsadida ilm-fanga yo'naltirilayotgan mablag'larni mamlakat yalpi ichki mahsulotga nisbatan ulushini maqsadli parametrlarga muvofiq oshirib borish.



Ilm-fanni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari quyidagilardan iborat:


birinchisi, ilm-fan sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirish;


ikkinchisi, ilm-fan va ilmiy faoliyatni moliyalashtirish tizimini takomillashtirish hamda moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiyalash;

uchinchisi, yuqori malakali ilmiy va muhandis kadrlar tayyorlash hamda ularni ilmiy faoliyatga yo'naltirish;

to'rtinchisi, ilm-fanni rivojlantirishning zamonaviy infratuzilmasini yaratish;


beshinchisi, ilm-fan taraqqiyotiga ko'maklashadigan zamonaviy axborot muhitini shakllantirish.





Ta'lrim va tarbiya masalasi har qanday jamiyat rivojining ustuvor yo'nalishi sanaladi. Yurt farovonligi albatta ta'limgning qanchalik rivojlanganligiga bog'liq. Xalqimizning asosiy tayanchi va suyanchi bo'lgan yoshlarga bilim berayotganimizdan, yuqori bilim va malakaga ega bo'lgan, raqobatdosh kadrlar tayyorlashga yo'naltirilgan oliy ta'lim sohasida mehnat qilayotganimizdan faxrlanamiz. **Oldimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etish maqsadi turgan ekan, buning uchun bizga zamonaviy ilm va unga hamohang ravishda tarbiya kerak. Bugungi va ertangi kunimizni, yoshlарimiz taqdirini hal qiladigan yuksak malakali muallim va murabbiylar, professor-o'qituvchilar, haqiqiy ziylolar qatlamisiz – bu niyatlarga erisholmaymiz.** Zero, ta'lim va tarbiya, ularning uyg'unligi masalasi har qanday jamiyat rivojining ustuvor yo'nalishi sanaladi. Yurt farovonligi albatta ta'limgning qanchalik rivojlanganligiga bog'liq.

Uchinchi Rennesans poydevorini qurishning tarkibiy qismi sifatida mamlakatda uzluksiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish yo‘lini davom ettirish, sifatli zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan ta’lim xizmatlari imkoniyatlarini kengaytirish, o‘rta ta’limni mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq moslashtirish, yuqori malakali kadrlar tayyorlashga alohida e’tibor qaratilyapti.





**O'zbekning millatparvar, jadid adabiyoti namoyondasi, ilk maktab va darsliklar asoschisi
Abdulla Avloniyning:**

“Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir”

...




O'g'il-qizlarning bilim olishi bilan birga tarbiyasiga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratiladi. Jumladan, umumiylor ta'lim maktablarida ma'naviy, ma'rifiy masalalar bo'yicha direktor o'rinnbosarlari, mahallalardagi profilaktika inspektorlari, ijodiy-madaniy masalalar targ'ibotchilarining hamkorlikda olib borayotgan tizimli ishlari ham shu masalaga qaratilgan.



Yoshlarga oid davlat siyosati yoshlarning ma'naviy, intellektual, jismoniy va axloqiy jihatdan kamol topishiga ko'maklashish, yoshlarni axloqiy negizlarni buzishga olib keladigan xatti-harakatlardan, zo'ravonlik va shafqatsizlik g'oyalaridan himoya qilish, o'g'il, qizlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyati darajasini yuksaltirish, sog'lom turmush tarziga intilishni shakllantirish, shuningdek, o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish va sportni ommaviy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan.

Ilm-fanni yuksaltirishda, uning yangiliklarini, kashfiyotlarini amaliyotda qo'llashda, yangi texnologiyalarni yaratishda oliy o'quv yurtlarining o'ziga xos o'rni bor. Shuning uchun mamlakatimizda ta'limning bu sohasida ham ko'plab islohotlar amalga oshirilmoqda. E'tibor bering, bir paytlar respublikamizda 30 dan ortiq oliy ta'lim muassasalari bo'lardi. Endi-chi? Yurtimizdagи oliy o'quv yurtlarining soni 141 tadan oshdi. Oliy o'quv yurtlarining hududlardagi filiallari soni 25 taga yetdi. Xorijiy universitetlar, institutlarning 20 ga yaqin bo'limlari yurtimizda faoliyat olib bormoqda. Respublikamizda har yili chet el oliy o'quv yurtlaridan 4-5 tasi o'z filiallari, fakultetlarini ochmoqda. Bu esa yoshlarimizning Vatanda turib xorijiy oliy o'quv yurtlarida ta'lim olishlariga imkon yaratmoqda.




Zamonaviy ta’lim tizimida asosiy e’tibor ta’lim oluvchiga qaratiladi. Ta’lim oluvchining individual harakati, bilimni o‘zlashtirishi, malaka va ko‘nikmalarni shakllantirishi tizimning samarali natija berishiga asos bo‘ladi. Bu tizimni to‘liq faoliyat yuritishi, ko‘zlangan natijani bera olishi esa, ta’lim berish uchun o‘quv-metodik bazaning mavjudligiga, ularni ishlatish texnologiyasining yaratilganligiga bog‘liq.

Ilm-fan yutuqlarining ta’lim berish jarayoniga tadbiq etilishi – fan-ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyani ta’minlaydi. Bugungi kunda dunyoning eng yuqori reytingdagi universitetlari faoliyatiga e’tibor qaratsak, ularda aynan shu integratsiyaning mavjudligini guvohi bo‘lamiz. Ta’lim – ijtimoiy buyurtmani bajaradi. Jamiyat rivoji muntazam fan va ta’lim oldiga talablar qo‘yadi. Bu talablarning bajarilishi, ya’ni amaliy muammolarga ilmiy yechimlarning taklif etilishi ilm-fanning vazifasidir.

Ilm-fan sohasida olib borilayotgan ishlarning istiqbollari




Prezident Shavkat Mirziyoyev 25 oktyabr kungi videoselektor yig‘ilishida mutasaddilarga bir oy muddatda Qashqadaryodagi 48 ta maktabni tanlab olib, kelgusi o‘quv yilidan ularda Finlyandiya ta’lim tizimini joriy etish vazifasini topshirdi. Finlyandiya ta’lim tizimi dunyo miqyosida eng sifatli va samarali deya e’tirof etilgan ta’lim tizimlaridan biri hisoblanadi. Bu tizim dunyoning aksariyat davlatlarida amal qiluvchi ta’limning an’anaviy shakllari va usullaridan keskin farq qiladigan bir qator xususiyatlarga ega. Finlyandiya ta’lim tizimining o‘ziga xosligi ta’lim jarayonida asosiy ustuvorlik o‘qituvchi va o‘quvchi uchun imkon qadar erkin, qulay, jismoniy zo‘riqish va ruhiy bosimlardan holi muhit yaratishga qaratilganligida namoyon bo‘ladi.



Finlyandiyada ta'limning asosiy maqsadi — ijtimoiy kelib chiqishidan qat'iy nazar barcha bolalar uchun sifatli ta'lif xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini ta'minlash, ularni jamiyatning faol fuqarolari sifatida voyaga yetkazish va mustaqil hayotga tayyorlashdan iborat. Mamlakatda bepul mакtabgacha ta'lif va umumiy o'rta ta'lif barcha uchun kafolatlangan.

Finlyandiya va O'zbekistonda umumiy o'rta ta'limga xos o'xshash hamda farqli xususiyatlar





Finlyandiya va O'zbekistonda umumiy o'rta ta'limga maktab ta'limga xos o'xshash hamda farqli xususiyatlar



Finlyandiya va O'zbekistonda umumiy o'rta ta'limga muktab ta'limga xos o'xshash hamda farqli xususiyatlar





Xulosa qilib aytganda, eng muhimi, xalqimiz ongida ta’limtarbiya tizimiga nisbatan katta o‘zgarishlar paydo bo‘ldi, yoshlarimiz o‘rtasida esa bilim olishga bo‘lgan intilish va qiziqish kuchaydi. Bugun iqtidorli yoshlarimiz yurtimizdagи yangi, eng zamonaviy talablar asosida faoliyat yuritayotgan tarmoqlarda murakkab texnologiyalarni boshqarmoqda, ilmfan, madaniyat, sport sohalarida ulkan yutuq va marralarni qo‘lga kiritmoqda. Bu ham bo‘lsa – davlatimiz rahbari va hukumatimizning zamon bilan hamnafas ish yuritishi, ta’limtarbiya tizimiga bo‘lgan beqiyos g‘amxo‘rligi va keng ko‘lamli ta’lim islohotlari jarayoniga alohida e’tibor berib kelayotganligining samarasidir. Zotan, har bir mamlakatning buguni va kelajagi, tom ma’noda, ta’lim tizimining qay darajada rivojlangani, yosh avlodni tarbiyalash uchun yaratilgan shart-sharoitlar bilan belgilanadi.



E'tiboringiz
uchun rahmat!